

USE OF NON-TRADITIONAL METHODS IN THE MENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Nigmatova Mavjuda Zuvayduloyevna.

Teacher, Samarkand region, Department of "Methods of preschool, primary and special education"

Iskandarova Nilufar Tokhirovna
SamDChTI master.

Annotation:

This article discusses the importance of educational games in the mental development of preschool children, the practical aspects of non-traditional methods.

Keywords: education, play, activity, didactics, child, development, change, upbringing, culture, attention, thinking, creativity, maturity, joy, need.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishiga bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu bola tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanini yana bir isbotidir.

Bolaning jismonan baquvvat, aqlan yetuk bo'lishi hamda uzoq umr ko'rishi sog'lom turmush madaniyati bilan belgilanadi. Xalqimizda bolalarni kichik yoshdan boshlab sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashda o'yin faoliyatidan o'rinli foydalanib kelingan. O'yin bolalarning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O'yin orqali bolalar jismoniy, aqliy, ruhiy va ma'naviy jihatdan kamol topadi. O'yin bola uchun nafaqat tashqi dunyoni, narsa va hodisalarni bilish balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. O'yinlar orqali ularda yuksak insoniy xislatlar, sog'lom turmush madaniyati tarbiyalanadi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. Hayotiy faollik yaratiladi. Birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, juda katta ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'yinda aks ettirilgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi, ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrlarini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlariga ko'ra kelib chiqishiga ko'ra turlichadir.

Didaktik o'yinlar bolalar uchun MTTda ta'lim - tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Didaktik o'yinlar bevosita ta'lim bilan bog'liq bo'lib, unga yordam beradi. Didaktik o'yin - bu MTT yoshidagi bolalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir.

Didaktik o'yinlarni bir necha mustaqil guruhlarga ajratish mumkin.

Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farklay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, turtburchak to'g'ri turtburchak, uchburchak)ni bilishlari lozim. Namunaga ko'ra yoki nomi aytilgan ma'lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o'lchami buyicha terib chikishni biladilar, 8-10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo'yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3 xil o'lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik).

Navbatdagi o‘yinlar guruhi diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular voqeylikning ma‘lum jihatlariga qarata diqqatni tuplashga o‘rgatadi. (Diqqatni to‘planmasdan hyech bir ishni bajarish mumkin emas). Bu o‘yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg‘unligi, kuchuvchanligi, bo‘linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllantiriladi. Diqqatning turg‘unligi biror narsa ustida uzoq vaqt diqqatni to‘plab tura olish, demakdir. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib bolalar 1 - 1,5 soatgacha uzluksiz shug‘ullana oladilar.

Diqqatni ko‘chirish — uni bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tkaza olishdir. Diqqatning bo‘linuvchanligi bir vaqtning o‘zida kishining ikki yoki undan ko‘proq narsa bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7 ta narsa o‘rtasida diqqatni taqsimlay oladilar.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta — sekin ixtiyoriy diqqatga o‘tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullana olishini nazarda tutadi.

O‘yinlarning yana bir turi xotirani ustirishga karatilgan o‘yinlardir. Katta maktabgacha yoshdagi bola o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi — biror narsani eslab qolish, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir.

Tafakkurni o‘stirish- obrazli-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy tafakkur turlarini egallashdan iborat. Bola turli rejalar, sxemalardan erkin foydalana olishi lozim. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda mantiqiy tafakkur elementlari shakllana boshlaydi, ya‘ni ular xulosalar qila oladilar, mantiq qonunlariga ko‘ra fikrlaydilar.

Bola ijodiy qobiliyatining o‘shishi deganda tasavvur — xayolning taraqqiyoti va noan‘anaviy tafakkur qila olish tushuniladi. Ijodkorlik ko‘p jihatdan o‘z his — tuyg‘ulari, olam haqidagi tasavvurlarini turli usullar bilan bayon eta olishga bog‘liq. Buning uchun esa bola har bir narsada uning turli tomonlarini ko‘ra olishi, narsaga xos alohida belgilarning barchasini his qilishi, obrazni ko‘z oldiga keltira olishi kerak va nihoyat, bolalarni maktabga tayyorlashga yordam beradigan o‘yinlarorqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning taxlili bilan tanishtirish, bola qo‘lini yozuv malakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

A.A.Venger metodikasi bo‘yicha “Grafik diktant” keng qo‘llaniladigan uslub hisoblanadi. Katakli daftar varag‘idan olish va bolaga chiroyli naqshlar chizishni o‘rgatishni taklif etish. Bolaga qalam ushlab malakasi asosida qaysi tomonga tortishini asosida chiziq xosil qilishni o‘rgatish. Tarbiyachi bolalarga qaysi tomonga chiziqni chizishni aytib turiladi ya‘ni masalan: 2 katak yoki 4 katak deb chiziqni turli yo‘nalishlar ya‘ni pastga, yuqoriga, chapga, o‘ngga kabi topshiriqlar asosida y o‘naltiradi. Tarbiyachi bola chiziq tortayotganda to‘xtab turishi va yangi chiziqqa o‘tishni diqqat bilan tinglash kerak. Yakunida biror rasm yoki naqsh paydo bo‘lishi, albatta bolani quvontiradi. Bolaga naqshni qaerdan boshlab chizishni ko‘rsatish (varaqlarning ustki chap burchagidan, chekkasidan biroz joy tashlab va aytib turish kerak. Masalan bitta kattakcha yuqoriga, ikkita kattakcha o‘ngga bitta kattakcha pastga, uchta kattakcha pastga va hok. Agar bola xatoga yo‘l quysa tuzatishga imkon berish, lekin keyin mustaqil chizishni davom ettirishga e‘tibor berish kerak. Agar bola vazifani bajarsa yangi diktant topshirig‘ini taklif etiladi. Har bir naqsh yoki rasmning bajarilish darajasi tahlil etiladi

Tarbiyachi kuzatish asosida qo‘l matorikasini va diqqati hamda xotirasining qay darajada rivojlanganini kuzatish asosida hamda bolaning mustaqilligini inobatga olinadi va tahlil etiladi.

Tarbiyachi kuzatuv asosida kursatgich sistemasida baholashi mumkin ya‘ni; Yuqori darajasi bola xatosiz diqqat bilan chizishi

O‘rtacha baholanishi ayrim joylarda noto‘g‘ri chizilishi

Past darajada chiziqlar kataklardan chiqib noto'g'ri yo'nalishda amalga oshirilgani "Grafik diktant" usuli bolani maktab ta'limiga tayyorlash uchun eng samarali metod hisoblanadi. Unda bolaning aqliy rivojlanishining barcha shakllari qamrab olinadi: bilish jarayoni (solishtirish ko'nikmasi, umumlashtirish, tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish, obrazli fikrlash, bolaning mantiqiy imkoniyatlari qanchalik aqliy rivojlanganligiga baho beriladi.

Bolaning o'quv faoliyatiga ilk zamin va ko'nikmalarni egallanganligi darajasini aniqlash uchun **J.Saidnazarova usuli** tavsiya etamiz.

1-topshiriq: **Ko'rib, yodda saqlash** - bolaga bir minut davomida 7-10 ta bir-biriga bog'liq, bo'lmagan narsalarning, masalan koptok, daraxt, avtobus, olma, qulqop, kitob, piyola, zontik, kapalak rasmi kursatiladi. So'ngra ular teskari kuyiladi va boladan ko'rgan narsalarni so'raladi. Agar bola bir minut ichida xohlagan tartibda ko'rgan narsalarni aytsa demak natija a'lo bo'ladi.

2-topshiriq **Eshitib yodda saqlash**- bolaga 2-3 sekund oralig'ida 7-10 ta bir-biriga bog'liq bo'lmagan nomini aytish va eslab qolish taklif etiladi.

3 topshiriq: **Mazmunni yodga saqlash**-bolaga ma'lum bir mazmundagi hikoya 1-2 marta aytib yoki o'qib beriladi. So'ngra boladan unda nima haqida gapirilayotganini aytib berish so'raladi.

Agar bola hikoyani so'zma-so'z aytsa, demak unda eshitish va yodda saqlash rivojlangan, agar u hikoyani asosiy mazmunini ajratsa, ya'ni aytib yetkaza olsa, demak unda mazmunini yodda saqlash rivojlanganligi dalolatidir.

Bolaning tasavvuri va ijodiy fikrlashi qay darajada aniqlashda **Rorshax metodikasi yordam beradi.**

Shvetsariyalik olim, doktor Rorshax tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metod bulajak birinchi sinf o'quvchilarning og'zaki va mantiqiy fikrlashini tekshirib kuzatishni maslaxat beradi. Unga ko'ra:bolaga qog'ozga simmetrik tarzda 10 ta siyoh chaplanmasi (tomchisi) ko'rsatiladi. Bola har bir tomchiga qarab nimani tasavvur etib eslayotganini va nimani ko'rayotganini izohlaydi.

Albatta mutaxassislar va ota-onalar ishtirokida ushbu izohni birgalikda taxlil etiladi. Agar bola dog'lar hech narsani ko'rolmasa, demak uning fikrlashi, asosan tasavvuri past darajadaliqiga borib taqaladi.

Olti yoshli bolaga "Mening oilam" mavzusida rasm chizishni taklif qilinishi Rorshax metodikasida kursatilgan. Agar bola chizishdan bosh tortsa -bu noxush xotiralar bilan bog'liq stress xolati;

Kimni birinchi bo'lib chizsa-bola uchun aziz inson;

O'zini yirik qilib chizsa, uyda unga ko'proq ahamiyat berishadi, kattalar diqqat markazida

Katta ona kichik ota oilada ruhiy muvofiqlik buzilganlik dalolatidir. Ona ahamiyatli.

Barcha oila a'zolari alohida bo'laklarda chizilsa-oilada do'stlik yo'q.

Rasmda qo'g'irchoq va kuchukchanning rasmi bo'lsa-oilada iliklik yetishmaydi.

Bola o'zini o'rtaga chizsa -demak o'zini eng ahamiyatga aksincha pastda bo'lsa eng qaram deb hisoblaydi.

Bu holat katta ahamiyatga ega. Bolaning psixologik holati kelgusida o'qishiga ta'sir etmasligi kerak. Ota-ona shunchaki chizilgan mahsulot faoliyati deb o'yladilar, biroq bu faoliyat bolaning ichki kechinmalarini, atrofdagi munosabatlarini namoyon etadi.

Kern-Irasek uslubi asosida bolaga odam chizish topshirig'i asosida figuraning barcha qismlarini ifodalanishi yoki qisman ayrim tana elementlarning chizilmasligi aniqlab taxlil etiladi.

Boshlang'ich maktabda, asosan ta'limning birinchi yilida maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy va unga maqul keladigan faoliyat turi -o'yinlar ekanligini hisobga olgan holda o'yin usullarini kengroq qullash zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o'qitish bosqichida tashkilotda ham, maktabda ham ularga o'qishda qat'iy belgilangan talablarni qo'yish mumkin emas.

Bolani savodxonlikka o'rgatishda quydagi mashq usullarni taklif etamiz masalan:

Bosh harfiga mos asoslanib uchta personajga sovg'a olib keling deb taklif etish mumkin.

Bolalar uchun savod o'rgatishga oid domino o'yinini taklif etish mumkin.

Bosh harfini topib olamiz rasmga qarab didaktik o'yin asosida tashkil etish mumkin.

Bog'da gullar harflar o'sib chiqibdi ularni alfavit asosida terib chiqaylik va bogamizni gullataylik kabi qiziqali o'yinlar bolani maktab ta'limiga tayyorlashga asos bo'ladi

O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin uning harakatga, ishga, atrofdagi hayot taassurotlarini tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir. Talab darajasida rivojlanayotgan bola ko'p harakat qiladi va ishtiyoq bilan o'ynaydi. O'yinni bolalar hayotini tashkil etishning forma va ko'rinishlaridan biri deb bejizga aytishmaydi. O'yin bola hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi, uning xulq – atvorini shakllantirib boradi.

Ko'p va diqqat bilan o'ynaydigan bolalar kamroq sho'xlik qilishadi, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan, tartibli va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib ulg'ayadi. Jozibali o'yin ta'sirida bolaning qanchalik o'zgarib ketishiga bir nazar tashlang-a! Kamgap bola ko'p gapiradigan, odamovi bola dilkash, qo'rs bola xushmuomila bo'lib qoladi. Tinib - tinchimas bola o'yinga berilganda boshqa hollarda bajara olmagan ishlarni o'yin jarayonida osonlik bilan amalga oshiradi.

O'yin jarayonidagi muloqotlar bolalar uchun xulq - atvor normalarining amaliy maktabi bo'lishga erishishimiz kerak.

Bunda ular o'yin harakatlarida nima yaxshi-yu nima yomonligini, vijdonan, adolatli, o'rtoqlarcha ish tutish nima, u qanday ekanligini anglab yetishlariga yordam beradi. O'yinlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda soddalikdan asta sekin murakkablikka o'tish qoidalariga rioya etish kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori. 2017 yil.
2. R.J.Ishmuhamedov va boshq. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahb arlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste'dod, 2010.
3. L.Mirjalolova. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish. T.: 2006
4. M.Fayzullaeva va boshq. "Sog' tanda-sog'lom aql" T.: 2014
5. T.Usmonxo'jaev va boshq. "500 harakatli o'yinlar". T.: "YAngi asr avlodi", 2014.